

AMIR TEMUR DAVRIDAGI IJTIMOIIY-IQTISODIY VA MADANIY HAYOT

Bekmurodov Mehroj Faxriddin o'g'li

*Axborot texnologiyalari va menejment universiteti
magistratura bosqichi talabasi*

Annotatsiya: Maqolada Amir Temur davrida soliq tizimi, dehqonchilik va obodonchilik ishlariga e'tibor berib, o'z davlatida adolat mezonlarini o'rnatishga harakat qilganligi va yana mamlakatda tasviriy san'atminiatiyura san'ati va monumental rassomlikda ham yuksalish ro'y berganligi yoritilgan. asoslanganligini "Temur tuzuklari" dan misollar keltirib bayon qilgan.

Kalit so'zlar: soliq tizimi, bog', yaylov, dehqonchilik, obodonchilik, hiroj, bozor, lalmikor yer, ilm-fan, ma'rifat, ma'naviy hayot, sayidlar.

SOCIO-ECONOMIC AND CULTURAL LIFE DURING AMIR TIMUR

Bekmurodov Mehroj Fakhriddin o'g'li

Master's student at the University of Information Technologies and Management

Annotation: The article explains that during the time of Amir Temur, he paid attention to the tax system, agriculture and landscaping, tried to establish the criteria of justice in his country, and there was an increase in fine arts, miniature art and monumental painting in the country, on examples from the "Laws of Temur".

Keywords: tax system, vegetable garden, pasture, agriculture, improvement, hiring, market, arable land, science, education, spiritual life, he said.

*Davlat ishlarining to'qqiz ulushini kengash, tadbir va mashvarat,
qolgan bir ulushni qilich bilan amalga oshirdim
AMIR TEMUR*

Kirish

O'zbekiston o'z mustaqilligini qo'lga kiritishi natijasida Vatanimiz tarixini chuqur va haqqoniy o'rganish uchun keng imkoniyatlar ochdi. Mustaqillikni mustahkamlash va vatanimizni tenglar ichra teng bo'lmog'ini ta'minlashda ko'p jihatdan ma'naviy barkamol, milliy tarixini chuqur biladigan, o'zligini anglagan fuqarolar o'rni muhimdir. Ma'naviy jihatdan yetuk barkamol shaxs tarbiyalashda esa tarix fanining o'rni katta. Shuning uchun ham yurtimizda tarix fanini rivojlantirishga katta e'tibor berilmoqda. Xususan, "Xalqimizning tarixi va boy madaniyati, buyuk ajdodlarimizning, eng avvalo,

Amir Temurning bebaho merosi, Vatan ozodligi va farovonligi yo'lida o'zini qurbon qilgan zamondosh vatandoshlarimizning qahramonligi asosida, O'zbekiston xalqiga sodiq, qat'iy hayotiy qarashlar va faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo'lgan o'quvchilarni tarbiyalash" lozimligi dolzarb vazifa etib belgilangan. Shu jihatdan, Amir Temur va temuriylar davri tarixini har tomonlama chuqur o'rganish qo'yilgan ushbu vazifalarni amalga oshirishga xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir.

Ushbu maqolada Amir Temur va temuriylar davrida turli sohalarning yetuk namoyandalari Amir Temur va temuriylar davridagi ilm-fan va madaniyat rivoji va ular yaratgan asarlar, odobaxloq, tarbiyaga oid qarashlar bayon etilgan. Shuningdek, Amir Temur bobomiz o'g'itlari, o'g'itlari o'rin olgan manbalar haqida ham ma'lumotlar mavjud. O'zbek davlatchiligi tarixida Amir Temur va temuriylar davri alohida o'rin tutadi. Mamlakatimiz mustaqillikka erishgach, tariximiz, madaniyatimiz, buyuk allomalarimiz, buyuk sarkardalarimiz, davlat arboblari haqida xolis fikr bildirildi, ilmiy-amaliy, badiiy asarlar, anjumanlar o'tkazildi, davr tarixiga oid qimmatli ma'lumotlar umumlashtirilib, yangi ma'lumotlarga ega bo'ldi. Sohibqiron Amir Temur buyuk shaxs, buyuk sarkarda, buyuk davlat arbobi, huquqshunos, notiq, psixolog, shuningdek, o'z yurtini, xalqini sevadigan bunyodkorlik, fan va madaniyat homiysidir. Bu davr tarixini o'rganishda, eng avvalo, shu davrda yaratilgan asarlar, allomalarning qarashlari, ma'naviy meros namunalari davr tarixini yangicha yondashuvlar asosida o'rganish imkonini beradi. Amir Temur nafaqat markazlashgan davlat qurilishi, boshqaruvi, harbiy mahorati, balki odob-axloq, imon-e'tiqod, ta'lim-tarbiya sohasida ham buyuklik va kamolotga erishgan siymolardan biridir. Ulug'sarkardaning o'z ustozlari, ma'naviyat peshvolariga bo'lgan hurmati bunga yorqin misoldir. Bu borada Amir Temurning axloqiy dasturlari, o'g'itlari, nasihatlar hamda u haqida yaratilgan bir qancha tarixiy asarlarni keltirishimiz mumkin. XV asr tarixchisi Fosihi Ahmad Havofiyning dunyoga mashhur "Tuzuki Temuriy", "Malfuzoti Temuriy", "Voqioti Temuriy" va "Mujmal-i Fasihiy", Nizomiddin Shomiy va Sharafiddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma", Ibn Arabshoh. "Ajoyib ul-maqdur fi-ahbori Temur", Salohiddin ibn Mullo Aloiddin xoja Eshon (Salohiddin Toshkandiy) ning "Temurnoma" kabi asarlari shular jumlasidandir.

Adabiyotlartahlilivametodologiyasi

Amir Temur o'z hukmronligi davrida davlat va harbiy boshqaruvi bilan bir qatorda, soliq tizimi, dehqonchilik va obodonchilik ishlariga ham alohida e'tibor bergan. Oddiy dehqonlarning turmushlarida adolat mezonlarini o'rnatishga harakat qilgan. "Amr qildimki", – degan u "tuzuklar"ida, – hosil pishib yetilmasdan burun raiyatdan molu jihat olinmasin, hosil yetilgach, hosilni uchga bo'lib olsinlar. Agar raiyat soliq to'plovchi yubormasdan, soliqni o'zi keltirib bersa, u holda u yerga soliq to'plovchi yubormasinlar. Agarda soliq olishga yuborishga majbur bo'lsalar, ular soliqlarni buyruq berish va yaxshi so'z bilan olsinlar; kaltak, arqon ishlatib, ishni urush-so'kishgacha olib bormasinlar.

“Temur tuzuklari”da mamlakatdagi soliq tizimi ma’lum meyorga tushirilganligi bayon qilinadi. Jumladan, kimki sahroni obod qilsa, birinchi yili undan hech narsa olinmagan. Ikkinchi yili raiyat o’z roziligi bilan bergan narsa olingan. Uchinchi yili qonun-qoidaga ko’ra xiroj olingan. Soliqning asosiy turi xiroj bo’lib, u ekindan olingan hosilga va yerning unumdorligiga qarab yig’ilgan. Sug’oriladigan yerlardan hiroj hosilning 1/3 qismi miqdorida olingan. Agar yer egasi xirojni pul hisobidan to’lashga rozi bo’lsa, unda hosilning uchdan bir qismi bozor narxi hisobidan pulga chaqilgan.

Lalmikor yerlarning hosili sug’oriladigan yerlarga nisbatan kam bo’lgani uchun, bunday yerlarda dehqonchilik qilgan muzoriylar umumiy hosilning 1/6 qismi miqdorida soliq to’laganlar. Bunday yerlar, odatda zamonasining ilm-fan, ma’rifat va ma’naviy hayotining akobir va ashraflari hisoblangan sayidlar, xo’jalar, ulamo va mashoyixlar tasarrufida bo’lgan. Bu davrda bog’ va daraxtzorlardan “mol sardaraxt”, yaylovlardan “mol o’tloq” va “suvloq” kabi soliqlar olinib, ularni to’plashda qadimdan rasm bo’lgan tartib-qoidaga amal qilingan.

Do’kondor hunarmandlardan tamg’o solig’i olingan. Zarur bo’lganda aholi katta qurilishlarga jalb etilgan. Bu ishlarda mirobona, dorug’ona soliqlari undirilgan. Chegara hududlarida bojxona bo’lib, chetdan keladigan savdogarlardan boj undirilgan. Mamlakat xavf ostida qolgan paytlarda favqulodda soliq (avorizot) yig’ib olingan. Mamlakat hududidan chopar yoki elchilar o’tayotganda, zarurat tug’ilganda, aholi ularga ot-ulov topib berishi lozim bo’lgan. Amir Temur davlatida olib borilgan soliq siyosatining adolatlilik xarakteri, uning davlat va jamiyat manfaatlaridan kelib chiqqanligida edi.

Amir Temur amaldorlardan doimo qonun va adolatga bo’ysunishini talab qilgan. Ularga gunohkor deb hisoblanganlarga nisbatan kuch ishlatish, ularni qamchi yoki tayoq bilan urish taqiqlangan, bu qoidani buzganlar o’limga hukm qilingan, Temurning soliq siyosati va bu siyosatga oid tartibqoidalarni o’rganish hozirgi kunda ham o’z ahamiyatini yo’qotmagan.

Amir Temur davlatida huquqiy munosabatlar Qur’oni Karim va Hadisi sharifdan bayon qilingan tartib qoidalarga asoslangan. Uning huquq va qonun unsurlari “Temur tuzuklari”da o’z aksini topgan. Bu asarda davlat yumushlari, harbiy soha, raiyat va ijtimoiy tuzumning barcha qatlamlari haqida so’z yuritilgan. “Temur tuzuklari”da ta’kidlanishicha, dunyoviy jihatlarni hukmdorning o’zi nazorat qilgan va kerakli jazoni ham aynan davlat boshlig’i bergan. Jumladan, ispan elchisi Rui Gonsales de Klavixoning estaliklarida takidlanishicha, – Temur shaharda olti yilu o’n bir oy bo’lmagan vaqtda, o’z o’rniga hokim qilib tayinlab ketgan kishi, uning ishonchidan foydalanib o’z lavozimini suiste’mol qilib, ko’p xatoliklarga yo’l qo’yadi. Sohibqiron Samarqandga qaytgach, bu kishini oldiga chaqirib mol-mulkini musodara qilib, o’zini jazolaydi.

Shariat ishlari qoziga berilgan. Biroq davlatning devonida, uning turli bo'g'inlarida ham alohida qozilar, sud, jinoyat va jazo ishlarini amalga oshirganlar. Masalan, lashkar uchun maxsus qozi, raiyat uchun alohida qozi tayinlangan.

Amir Temurning ulkan markazlashgan davlatda osoyishtalikni o'rnatish, iqtisodiyot va savdo-sotiq sohasida olib borgan siyosati, mamlakatdagi shaharlarni obodonlashtirish, ilm-ma'rifat, hunar va kasb egalari qadrini ko'tarish natijasida madaniyat taraqqiyoti yuksak pog'onaga ko'tarildi. Temur mamlakatning iqtisodiy qudratini oshirishga harakat qildi. U ishg'ol qilgan mamlakatlarda katta boyliklarni qo'lga kiritib, ularni Movarounnahrda shaharlarni obodonchiligi uchun sarf qildi. Temur Samarqandda hashamatli binolar barpo qilish uchun Xorazm, Urganch, Tabriz, Isfixon, SHeroz, Bog'dod, Xalab, Damashq va Hindistondan g'isht teruvchi ustalar, pardoziy ustalar, quruvchilar, o'ymakor ustalar, naqqoshlarni o'zga mamlakatlardan keltirdi. Bu haqda Ibn Arabshohning asarida keltirilishicha: "Temur Damashqdan, fazilat sohiblarini, turli hunar ahllarini va qanday bo'lmasin, biror kasb egasi bo'lgan mohir kosiblarni – to'quvchilar, tikuvchilar, san'atkorlar, duradgorlar, (temir) qalpoq yasovchilar, otboqarlar (mol tabiblari), chodir yasovchilar, naqqoshlar, yoy yasovchilar, lochindorlar – bir so'z bilan aytganda qanday hunar ahli bo'lsa (birga) olib keladi".

Damashqdan so'ng Amir Temur Bog'dod tomon yo'l olib, "odamlarning bir qismini Ollohdod (sohibqironning amirlaridan biri) bilan (birga) Samarqandga jo'natdi". Bu guruh uch-to'rt oydan so'ng 1401 yilning kuzida Samarqandga yetib keladi. "Ularning saflarida Shom ahlidan bir guruh (kishilar) bor ediki: (ularning) eng ko'zga ko'ringani vazir ashShohidiyning o'g'li qozi Shihobuddin Ahmad bo'lib, qolganlari esa, mol tabiblari, buyoqchilar, shoyi to'quvchilaredilar. Bular Temur Shomdan olib kelgan qimmatbaho yuklarning avvalgisi va u tergan asirlaru boyliklar mevasidan Samarqandga yetib kelgan dastlabki samara edi". Bularidan tashqari minglab hunarmand va kosiblar Armaniston, Ozarbayjon, Kirmon, Fors va boshqa viloyatlardan olib kelindi. Damashq mohir tikuvchi, chapdast chavandoz va komonbozlarni, loydan ko'za yasovchi kulollarni ko'plab jo'nattirdi. Turkiyadan esa mergan ovchilar va boshqa hunarmandlarni: g'isht teruvchilar, tosh yo'nuvchi, tilla bilan ishlovchi, zardo'z ustalarni, shuningdek, turli mutaxassislar – injenerlar, arqon to'quvchilarni va arqon ishlab chiqariladigan dastgohlarni ham Samarqandga olib keldi. Shundan keyin mamlakatda kanop va zig'irpoya ekiladigan bo'ldi. Qamishdan shakar olish yo'lga qo'yildi. Movarounnahrda mayda hunarmandchilik, to'qimachilik, ganchkorlik taraqqiy etdi, metall va nodir toshlar qayta ishlana boshladi. Zahiriddin Boburning xabar berishicha, o'sha davrda Samarqandda eng yaxshi qog'oz ishlab chiqarila boshladi.

Bu davrda tasviriy san'at-miniatiyura san'ati va monumental rassomlikda ham yuksalish yuz bergan, Bir talay miniatiyura asarlari maydonga kelgan. Bizgacha yetib kelgan tasviriy san'at yodgorliklari Samarqand, Hirot va Buxoroda bu san'atning o'ziga

xos uslublari shakllangani, hayotni real tasvirlash rivojlanib borganligini ko'rsatadi. Samarqandning Bog'i Shamolidagi Sohibqiron qurdirgan saroy rasmlarini chizgan Pirsaid Ahmad tengi yo'q musavvir bo'lgan. Zaxiriddin Bobur esa o'z asarida Dilkusho bog'i saroyidagi rasmlarda Temurning Hindiston safari tasvirlanganligini hikoya qiladi. Amir Temurning tiriklik vaqtidagi qiyofasi aks etgan miniatyuralar hali topilmagan. Asl holatiga yaqin suratlar "Zafarnoma"ning dastlabki ko'chirilgan nusxalarida uchraydi. Uning bir muncha yorqinroq qiyofasi Hirotida (1467 y) ko'chirilgan "Zafarnoma"da keltiriladi. Dastlab Mirak Naqqosh boshlagan va Behzod yakunlagan ushbu miniatyurada boy kompazitsiya va serjilo buyoqlar uyg'unligi bilan ajralib turadi.

Amir Temur davrida memorchilik san'ati ham taraqqiy etdi. Xususan, Temur Samarqandda Bibixonim, Ko'ksaroy masjidi, Shohizinda maqbarasini barpo qildi. Kesh (Shahrisabz) shahrida Oqsaroy qurila boshlandi. Bulardan tashqari, Samarqand atrofida Bog'i Shamol, Bog'i Dilkusho, Bog'i Nav, Bog'i Chinor bog'lari barpo etildi. Temur obodonchilik ishlariga katta e'tibor berib, ko'priklar, irrigatsiya inshootlari, karvonsaroylar, rabotlar qurdirdi, kanallar o'tqazdi, ko'plab maktab, madrasa va xonaqohlar, hammomlar barpo qildi. Uning davrida Samarqand yangicha usulda qayta qurildi. Bu davrda qurilgan Shirinbeka, Bibixonim, Tuman og'o obidalarida naqqoshlik va hattotlik bilan birga tasviriy lavhalar ishlangan. Shirinbeka og'o maqbarasida tasvir ko'p ranglarda, qolgan ichki bino devorlarida oq va moviy rangdagi tabiat manzaralari tasvirlangan.

Amir Temur o'z davrida qurdirgan binolar o'zining xashamdoligi, bilan ajralib, o'ziga xos sharqona ko'rnishdagi uslubga ega bo'lgan Jumladan, Amir Temurning Shahrisabz shahrida qurdirgan "oq machit" saroyi ispan elchisi Rui Gonsales de Klavixo nigohidan chetda qolmagan. U bu haqda, o'z estaliklarida saroy qurilishi haqida to'liq ma'lumot yozib qodirgan. 1404 yil 28 avgust kuni Keshga kirib kelgan sayyoxlarni, ertasi kuni kuni Sohibqironning farmoni bilan yigirma yildan beri qurilayotgan qasrni ko'rish uchun olib boradilar. Qasrning kirish qismidagi uzun darvozasi juda baland bo'lib, kiraverishning chap va o'ng tomonidagi gishtdan ark qilingan va naqshlariga tilla suvi yuritilgan edi. Arkning ostida eshiksiz kichik xonalar joylashgan. Xonalarning pollari pastroq bo'lsada, juda chiroyli bezaklar bilan ziynatlangan. Darvozaning orqasida ham shunga o'xshash xonalar bo'lib, ulardan katta hovliga chiqiladi. Hovlining yerlariga oq toshtaxtalar yotqizilgan, atrof juda ko'rkam bezatilgan. Eni uch yuz qadamcha keladigan hovlining o'rtasida katta xovuz bor, hovlidan saroyning katta xonalaridan biriga o'tadigan eshik juda mohirlik-da, tilla va duru gavharlar bilan bezatilgan, eshikning o'rtasida orqasida quyosh chiqib turgan sherning rasmi, chekka qismlarida ham huddi shu surat tasvirlangan. Bu katta eshik orqali mehmonlar uchun qurilgan to'rtburchak shakldagi katta xonaga kirib borilgan. Xonaning devorlariga tilla, dur-gavharlardan bezak berilgan bo'lib, shiftlariga tilla suvi yurgizilgan... Tepadagi qavatda xonalar juda ko'p bo'lib,

ularning bari oltin, dur-gavharlar bilan ziynatlangan... Sohibqironning o'zi va zavjalari uchun ajratilgan xonalarning devorlari, yeri va shifti aqlni lol qoldiradigan darajada bezatilgan. Sohibqironning tantana va bazmlarni o'tkazadigan juda katta mehmonxonasining devoru shiftlari oltin, dur- javohirlar bilan ishlangan. Mehmonxonaning ro'parasida katta bog', unda har xil mevali daraxtlar va hovuz bo'lgan. Bu qasr va masjid juda yuqori darajada chiroyli qurilgan bo'lib, o'sha davrdagi parijlik ustalarning ham shunday sa'at namunasiga xayrat bilan qarashlari elchi tomonidan tan olingan.

O'rta Osiyo san'atining ko'zga ko'ringan tadqiqotchilari – san'atshunoslik fanlari doktorlari L.I. Rempel va G.A. Pugachenkoalar konkret ravishda har tomonlama olib borgan tekshirishlar natijasida XIV asrning oxiri va XV asrning boshlarida umuman Movarounnahr, xususan Samarqandda yangicha san'at yuzaga kelganligini qayd etadilar. Movarounnahr – O'rta Osiyoning original, o'ziga xos memorchiligi, san'ati, xususiyatlarini hamda O'rta va Yaqin Sharqda rivojlangan badiiy tafakkurni o'zida ifodalagan edi.

Xulosa

Yevropalik elchilar Amir Temur davlatidagi boylik va hashamni to'laligicha his qildilar, bu haqda Klavixo quyidagilarni yozadi. Ular taklif etilgan uy benihoya qimmatbaho shohidan yasali, unda har biri to'rt poyali, yaxlit yasalgan xontaxtalarning uzunligi ikki yarim, kengligi bir yarim qarich keladi. Xontaxta ustiga yettita oltin quvacha qo'yilgan. Quvachalardan ikkitasining sirtiga yirik-yirik marvarid, zumrad, feruzalar o'yib joylashtirilgan. Har birining o'yilgan chiziqlari zihiga yoqut yopishtirilgan. Bundan tashqari, xontaxta ustida oltita dumaloq tilla kosa qo'yilgan bo'lib, ulardan birining ichiga yirik dumaloq guldor marvaridlar bilan sayqal berilgan. Kosa o'rtasiga yo'g'onligi ikki barmoq keladigan chiroyli rangdagi tabiiy yoqut yopishtirilgan. Podshoh nomidan uyushtirilgan ushbu bazmga elchilar ham taklif etildilar. Bu tomosha o'zining hashamatli, ko'rkamligi, undagi o'yinlarning serzavqligi bilan elchilarda chuqur taassurot qoldirgan. Xulosa qilib aytganda Amir Temur davrida o'lka xalqlari moddiy, madaniy va ma'naviy jihatdan ulkan yutuqlarga erishdi. Bu davrni tom ma'noda aytganda xalqimiz tarixida Ikkinchi uyg'onish davri deb hisoblash mumkin.

Shuning uchun ham ularning boy, serqirra ijodi, betakror va betakror ilmiy-falsafiy, badiiy, tarixiy asarlari zamon sinovlariga bardosh berib, bizgacha yetib kelgan. Mustaqillik sharofati bilan jahon ma'naviyati va ma'rifati sahnasida o'z o'rniga ega bo'lgan komil ajdodlarimizni, ular qoldirgan boy ma'naviy-ma'rifiy merosni chuqur anglash, o'rganish va ulug'lash imkoniyati yaratildi. Ajdodlarimiz, ayniqsa, buyuk davlat arbobi, ma'rifat, yuksak ma'naviyat homiysi Amir Temur va uning avlodlari qoldirgan meros bugungi kunda xalqimiz uchun ma'naviy poklanish, milliy o'zlikni anglash uchun bitmas-tuganmas ma'naviy boylikdir.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Axmedova, M., Alimova, M. M., & Karimova, M. J. (2014). Sovremenniy aspekti roli razvitiya duxovnosti v vospitanii podrastayushego pokoleniya. Molodoy ucheniy, (6), 863-865.
2. Temur Tuzuklari. T.: "G'ofur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at", 1996.- 122, 123, 124, 125 b.
3. Sagdullayev A., Aminov B., Mavlonov O., Norqulov N. O'zbekiston tarixi: davlat va jamiyat taraqqiyoti. T.: "Akademiya", 2000. - 137.
4. Rui Gonsales de Klavixo. Amir Temur Yevropa elchilari nigohida. Buyuk Amir Temur tarixi. T.: "G'ofur G'ulom", 2007.- 110, 111, 126-127, 143, 161. b.
5. Ibn Arabshoh. Ajoib al-makdur fi tarixi taymur. (Temur tarixida taqdir ajoyibotlari). I kitob T.: "Mehnat", 1992. - 246, 250, 251 b.
6. Xayrullayev M.M., A.O'rinboyev, O.Bo'riyev va boshqalar. Temuriylar bunyodkorligi davr manbalarida. T.: "Abdulla Qodiriy", 1997.- 9-10 b.
7. Mo'minov I. Amir Temurning O'rta Osiyo tarixida tutgan o'rni va roli. T.: "Fan", 1993. - 25, 27, 30 b.
8. Xayrullayev M.M., A.O'rinboyev, O.Bo'riyev va boshqalar. Temuriylar bunyodkorligi davr manbalarida. T.: "Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi", 1997.- 9-10, 20 b.
9. Tursunov, A. (2024). JOURNALISM AND ARTIFICIAL INTELLIGENCE (AI). WorldwideCross-DisciplinaryResearch, 1(1).
10. Khamitovich K. G. Measures in the Sphere of Maternal and Child Health in Uzbekistan //Miasto Przyszłości. – 2022. – T. 29. – C. 12-15.

